



UDK: 297(091)(575.1)

Jasur ULUG'OV,

Iqtisodiyot va pedagogika Universiteti NTM Samarqand kampusi o'qituvchisi

E-mail: ulugov_jasur@mail.ru

IPU dotsenti B.Toshpo'latov taqrizi asosida

SO'FI OLLOYOR YASHAGAN DAVR MA'NAVIVY QIYOFASI

Аннотация

Ushbu maqolada XVII–XVIII asrlarda yashab ijod qilgan So'fi Olloyor faoliyati va u yashagan davrning ma'naviy-madaniy muhitiga oid masalalar tahlil qilinadi. Muallif avvalo o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy sharoiti, diniy-ma'rifiy maktablar faoliyati hamda sufilylik an'analarning ahvoli haqida ma'lumot beradi. Maqolada So'fi Olloyorning tasavvufiy qarashlari, axloqiy-ruhiy tarbiya borasidagi g'oyalari va ularning zamonasidagi ma'naviy hayotga ta'siri ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, uning adabiy merosi davr ehtiyojlari, jamiyatning ma'naviy talab va muammolari bilan bog'lab tahlil qilinadi. Tadqiqot So'fi Olloyor yashagan davrning ruhiy-ma'naviy qiyofasini ochib berish, shuningdek, uning merosining bugungi ma'naviy-ma'rifiy jarayonlardagi ahamiyatini ko'rsatishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Sharq ma'naviyati, sharq odami, Alloh birligi tamoyili, diniy dunyoqarash, ibodat, ma'naviy yuksalish, kalom ilmi.

ДУХОВНЫЙ ОБРАЗ ЭПОХИ, В КОТОРОЙ ЖИЛ СУФИЙ АЛЛОИР

Аннотация

В данной статье анализируются деятельность Суфи Оллойдора, жившего и творившего в XVII–XVIII веках, а также духовно-культурная среда его эпохи. Автор рассматривает общественно-политические условия того времени, функционирование религиозно-просветительских школ и состояние суфийских традиций. В статье научно обоснованно раскрываются суфийские взгляды Суфи Оллойдора, его идеи духовно-нравственного воспитания и их влияние на духовную жизнь общества. Кроме того, его литературное наследие анализируется в связи с потребностями эпохи и духовными запросами общества. Исследование направлено на выявление духовного облика времени, в котором жил Суфи Оллойдор, а также на оценку значения его наследия в современных духовно-просветительских процессах.

Ключевые слова: Восточная духовность, восточный человек, принцип единства Бога, религиозное мировоззрение, богослужение, духовное возвышение, теология.

THE SPIRITUAL IMAGE OF THE ERA IN WHICH THE SUFI ALLOIR LIVED

Annotation

This article examines the work and legacy of Sufi Olloyor, a prominent figure of the 17th–18th centuries, as well as the spiritual and cultural environment of his era. The author explores the socio-political context of the period, the role of religious-educational institutions, and the state of Sufi traditions. The article provides a scholarly analysis of Sufi Olloyor's mystical views, his concepts of moral and spiritual education, and their impact on the spiritual life of society. His literary heritage is also studied in relation to the needs of the time and the moral-spiritual challenges faced by the community. The research aims to reveal the spiritual character of the era in which Sufi Olloyor lived and to highlight the relevance of his heritage in contemporary spiritual and educational processes.

Key words: Eastern spirituality, Eastern man, principle of the unity of God, religious worldview, worship, spiritual elevation, theology.

Kirish. Ma'naviyat barcha zamonlar, barcha makonlardagi insonlarning yutug'i, odamzodga berilgan bebaho ne'matdir. Sharq xalqlarida ma'naviyat nafaqat bu olamning, balki ikki olam masalasidir, insoniylik, tiriklik masalasidir.

Sharqda yuksalish ma'naviy o'sish bilan belgilanadi. Ma'naviy o'sish mikromakon-oila va mahalladan boshlanib, ijtimoiy munosabatlarda toblanadi. Asosan, ma'naviy muloqot natijasida sharq odami yuzaga keladi. Uning uchun ma'naviy yuksalish birinchi o'ringa qo'yiladi. Moddiy olamga tegishli bo'lgan rivojlanish ma'naviy nazoratda ushlab turiladi. Barcha jabhalardagi taraqqiyotga ma'naviyat qo'ygan baho yetakchidir. Shuningdek, tanazzulni ham ma'naviyat belgilaydi. Tarixan shunday bo'lib kelgan.

Tariximizda milliy ma'naviyatimizga ulkan hissa qo'shgan hodisalardan biri bu-so'zsiz Amir Temur bunyod etgan davlatdir. Sohobqiron davrida ilm-fan va bilimdon

kishilar har tomonlama qo'llab turildi. Islom dini quvvatlandi, qonunchilik tizimi ilohiy amr bo'lmish shariatga asoslandi, ta'lim tizimi izga solindi, aholining turmush darajasi yaxshilandi. Buyuk sarkarda Ona yurt, Vatan tuyg'ularini chuqur ildiz ottirdi. Madrasalar, kutubxona, maktablar barpo ettirdi. Buning natijasida, ilm-fan ravnaq topib, bu davr dunyo tarixida "Sharqning ikkinchi renessansi" nomi bilan tilga olinadigan bo'ldi. Islom ma'naviyatining yalovbardorlari bo'lgan tasavvuf ahli e'tiborda bo'ldi. Amir Temur o'z tuzuklarida qalandaru darveshlarga alohida urg'u berganligini ko'ramiz. Bu esa buyuk davlat arbobi jamiyat taraqqiyotining g'oyaviy asoslari zamon va makon muhitidan kelib chiqqan holda bevosita tariqatlar bilan bog'liqligini oldindan ko'ra olganini ko'rsatadi.

Temuriylar davrida erishilgan ma'naviy yuksalish keying davrda, barcha tarix kitoblarimizda birdek, tanazzulga yuz tutganligi yoziladi. Buning sabablarini So'fi Olloyorga

bag'ishlangan asarlarida ham topgandek bo'lamiz. "...insonning o'z hayotini ilohiy amr talablariga muvofiq olib bormasligi jamiyatning inqirozi, tanazzuliga olib keladiki, insoniyat tarixida dahriylik asosiga qurilgan qudratli davlatlar ham yo'qlik qa'riga singib ketgan". Ilohiy ko'rsatmalar faqatgina taqvoni belgilab bermaydi. Insonni mahluqot olamidagi yetakchiligini, bunday tanlanish yutuq bilan birga mas'uliyat ham ekanligini eslatib turadi. Tarix buyuk maktab. Undagi tajriba, ba'zan shunchaki yodga olinsa bas. Temuriylar davridan keyingi inqirozga sabab ham moziyga qaytib ish ko'rmaslikdan, ilohiy amrdan hayvoniy nafsni ustun qo'yishdan boshlandi.

Adabiyotlar tahlili. Milliy ma'naviyatimiz ildizlari Allohning borligi va birligiga asoslangan bo'lib, uning irodasi mutlaq ekanligiga imon keltirish masalaning yechimidir. Demak, inson yechimda adashadi. Imom Moturidiy asarlarida ham aqidaga kata e'tibor berilib, taqdir Allohdan faqatgina tanlov imkoniyati insonga berilgani qayd etilgan. Bu bilan ulug' ustoz ilmga ishora qilgan deb o'ylaymiz. Zero, ilmi va tavhidni ham zohiran ham botinan anglagan insongina to'g'ri tanlov qila oladi.

Tarixdan ma'lumki, Sohibqiron zamonida erishilgan ilmiy taraqqiyot uning vorislari davrida turg'unlik holatini boshidan kechirdi. R.Shamsutdinov va H.Mo'minovlar muallifligidagi "O'zbekiston tarixi" kitobida Amir Temur vafotidan so'ng temuriy shahzodalarning taxt uchun o'zaro kurashlari qudratli saltanatning bo'linishining asosiy sabablaridan biri sifatida ko'rsatiladi. Shohrux mirzo, Ulug'bek mirzolar davrida erishilgan yutuqlar saltanat taxtini egallashga bo'lgan harakat soyasida qolib ketdi. Tarix kitoblarida bunday holni siyosiy porakandalik deb ataymiz. Aslida, temuriylardan keyingi porakandalikni ma'naviy dunyoqarashning turlicha ekanligida desak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Gap shundaki, islom dini tarqalgan hududlarda ko'chmanchi va o'troq turmush tarziga asoslangan xo'jaliklarning mavjudligini ko'ramiz. M.Rahimov va A.Zamonovlarning "O'zbekiston tarixi" kitobida XVII asrning ikkinchi yarmida o'lkada yashagan o'zbek elatlaridan mang'it, saroy, qo'ng'iroq, jabg'u, qarluq, qalmoq, nayman, qipchoq, ming, yuz qabilalari sanab o'tiladi. Ular o'rtasidagi ma'naviy murosa ziddiyatli masala bo'lib, islom umumbashar nuqtai nazaridan ularni kelishtirishga urinib ko'rdi. Asosli va mustahkam mafkura va qat'iyatli siyosiy boshqaruv asosida Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) hamda xalifalar davrida buning uddasidan chiqa oldi. Ammo, temuriylar boshqaruvidagi sustkashlik davlat bilan birga umuminsoniy ma'naviy dunyoqarashga ham zarba berdi. Irsiyatni ustun qo'yan urug'lar siyosiy liderlik talabi bilan maydonga chiqdi. Natijada kam sonli kishilar xohishi ko'pchilik irodasi ustidan ustun keldi.

Markaziy Osiyoda ko'chmanchi va o'troq xo'jalik turmush kechirishning asosiy faoliyat turi hisoblanib kelingan. Ular o'rtasida siyosiy yetakchilik uchun urinish tabiiy hol edi. Agar bunga urug'lar o'rtasidagi ziddiyatlarni ham qo'chsak, naqadar murakkab siyosiy boshboshdoqlikni ko'ramiz. Insoniyat tarixida bunday dolg'ali muhitga qurol kuchi bilan yoki kuchli mafkura yordamida barham berilganligini guvohi bo'lganmiz. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning arablarni birlashtirish tajribasidan kelib chiqib aytish mumkinki, islom ma'naviyati ushbu muammoni o'z ta'limi bilan yecha olar edi. Buni yaxshi tushungan So'fi Olloyor siyosiy elitaga pastdan-natijasi ko'p bora isbotlangan, xalq ma'naviyatini o'stirish bilan ta'sir qilishni ma'qul ko'rdi.

Tadqiqot metodologiyasi. "So'fi Olloyor yashagan davr ma'naviy qiyofasi" mavzusini ilmiy tadqiq etish ko'p qirrali tarixiy, ma'naviy, diniy va madaniy jarayonlarni kompleks tahlil qilishni talab etadi. Tadqiqot ko'p metodli

(multimetodik) yondashuvga tayangan bo'lib, davr ma'naviy qiyofasi tarixiy-analitik, manbashunoslik, qiyosiy, tasavvufshunoslik, sotsiologik, falsafiy, germevtik kabi uyg'un metodlar orqali ochib beriladi:

Bu yondashuvlar So'fi Olloyor yashagan davrning ma'naviy muhitini chuqur ilmiy asosda yoritishga imkon beradi.

Natijalar va muhokama. Tasavvuf tarixida hukumatga yaqinlashib, taraqqiyot rivojiga turtki berishga harakat qilgan so'fiylarni bilamiz. Ayniqsa, naqshbandiya tariqati namoyondalaridan Xo'ja Ahror Valiy faoliyatida murosaga asoslangan targ'ibot muhim o'rin tutgan. Manbalarda bu o'zgarish mohiyatini muxoliflardan musulahlarga o'tishdan iborat edi, deb tushuntiriladi. Yani Xo'ja Ahror Valiy davridan boshlab tariqat manfaatlari va keng ma'noda xalq manfaatlarini ko'zlagan holda, tariqatning hukmdorlarga bo'lgan muxolifatidan, tariqat bilan davlat o'rtasida hukm surib kelgan qarama-qarshilik va murosasizlikdan voz kechib, ular bilan munosabat o'rnatish edi. Bu davrdagi tariqat ahlining ijtimoiy mavqeidan foydalanib, tasavvuf ma'naviyatining ahamiyatidan kelib chiqib aytish mumkinki, jamiyat qatlamlarini birlashtirishning uddasidan chiqsa bo'lar edi. Ammo, asosiy xatar o'lkada o'zini oqlagan tasavvuf ta'limotidan putur ketishidan boshlandi. Tariqatning siyosiy lashuvi chuqur ildiz otib, mansabga bo'lgan intilish kuchaydi. O'tmishda xalq tarbiyasi bilan shug'ullanish so'fiylarning asosiy faoliyati edi. Aksariyat zamon so'fiylari o'z soxta faoliyatini har xil karomatlar bilan haq tariqat ekanligiga asoslashga urindi. Haqdan boshqa da'vosi yo'q qalandarlarini hokimiyatga intilishi ommani chuchitib qo'ydi, o'zaro ishonchsizlikni keltirib chiqardi. Ma'naviy-ruhiy yetakchiga bo'lgan ehtiyoj kun sayin kuchayib bordi. Vaziyatdan foydalangan soxta pirlar o'z bilimsizligi, nomukammal amali bilan asrlar davomida yuksalgan tasavvuf ildizlarini yemirilashiga sabab bo'ldi. Soxta so'fiylarning ko'payishi, isbotlangan tariqat talqinlariga o'z holicha munosabat bildirish, shariat-tariqat-ma'rifat-haqiqat tizimining buzilishi So'fi Olloyor dardining o'zagi edi.

Tariqat ahli ma'naviy dunyoqarashining buzilishi, soxta valiylik, karomatgo'ylik So'fi Olloyor asarlarida qoralanib keladi. "...shariat neligidan bexabar kimsa o't yutib, og'zidan olov purkab, go'yo havo o'rtasida bulutni minib yursa, ilohiy qurbat hosil qiladigan bo'ladimi? Yo'q, zinhor. U kimsa Allohni yaqinroq tanitadigan maqomning hidi yetadigan masofadan ham ancha naridadir. Ko'rinishiga chalg'ib, muhabbat hididan bebahra bunday "mushki bebo'y"larni valiy bilib, aldanib qolmang" -deydi. Zero, karomat ko'rsatish tariqatning maqsadi emas. Hatto, payg'ambarlar ham so'nggi vaziyatladagina mo'jizalar ko'rsatishga majbur bo'lishgan. Aks holda bu ishni qilmas ham edi.

Ijtimoiy munosabatlardagi kelishmovchiliklar, zo'rovonlik tizimiga asoslangan boshqaruv, dunyoviy bilimlarning rivojlanishiga mutaasibona qarash va nihoyat feodal munosabatlarga asoslangan iqtisodiyot natijasida kelib chiqqan inqiroz oddiy aholi turmush tarzini nochor ahvolga soldi. Xalq najot izladi va islom ma'naviyatidan qoniqish oldi. Bundan soxta karomatgo'ylar moddiy manfaatdorlik ilinjida foydalanib qoldi. So'fi Olloyor faoliyatining o'zagida oddiy xalq dunyoqarashini islom nuqtai nazari bilan ochish, tavid, fano va baqo tahlili asosida axloqiy sifatlarining takomillashishi, komil inson tushunchasini musulmon sharqiga xos tarzda tushuntirish yotadi. Umrining asosiy qismini haq yo'lga, irfoniy bilimlar targ'ibiga, tasavvuf ta'limotining keng xalq ommasiga singdirishga safarbar etgan So'fi Olloyor zulm-zo'rlik, takabburlik, sudxo'rlik, vafosizlik, loqaydlik, ta'magirlik, tanballigu behunarlik, mansab-martaba, mol-dunyoni deb umrni yelga sovurish, dilozor, noittifoq bo'lishni qattiq qoralab, pand-nasihat qiladi.

So‘fi Olloyor ijodida Movarounnahr o‘lkasiga xos bo‘lgan, islomga asoslangan ma‘naviyatni tiklashga bo‘lgan intilishni ko‘ramiz. Shoir yashagan davr nazariy asoslari puxta ishlab chiqilgan, amaliyotining gullagan davri o‘z nihoyasiga yetayotgan tasavvufning so‘nggi kunlariga to‘g‘ri keldi. Tariqat odob va axlogi milliy ma‘naviy dunyoqarashimizga chuqur singib ulgurgan bo‘lsada, tashqi ta‘sir ostida bir muddat talvasada bo‘ldi. Abduraxmon To‘le‘ qalamiga mansub “Abulfayzxon tarixi” asaridan ma‘lum bo‘ladiki, siyosiy boshqaruv mahalliy hukmdorlar qo‘lidan ketgan edi. Shayboniyxon davridagi boshqaruvga putur yetib, tizim ishdan chiqadi. Islomga quvvat berib turgan sulola liderlarining taxt uchun kurashlarga tortilishi dinni faqatgina ibodat holiga tushirib qo‘ydi. Mutaasiblikni kuchaytirdi. Shuning uchun ham So‘fi Olloyor barcha asarlarida din targ‘iboti bilan shug‘ullandi. Holbuki, islom dinining nazariy qismi ishlab chiqilgan, asoslari mustahkamlangan, Qur‘oni Karimda inson mohiyati anglatilgan, tasavvufning o‘lkaga xos tariqatlari yaratilgan bir davrda ularni yana qayta eslash islom ahkomlari va tasavvuf g‘oyalari bir qadar yoddan ko‘tarilganligidan darak beradi. Masalan, shoirning “Sabot ul-ojizin” asarida aqida masalalari ibratli hikoyalar bilan birga qisqacha bayon etilgan. “Sabot ul-ojizin” nasihat ruhida yozilgan, inson qalbini iymon nuri bilan nurlantiradigan, johillik, tubanlik, yomonlikdan ma‘rifatga, kamolotga, yaxshilikka yetaklaydigan, zulmatdan yorug‘likka olib chiqadigan bebaho asar hisoblanadi.

Xulosa. Shoirming tasavvufga oid qarashlarida ham mutadillikni ko‘ramiz. U o‘z faoliyati bilan shariatsiz tariqat,

tariqatsiz ma‘rifat, ma‘rifatsiz haqiqat bo‘lmasligini ko‘rsatdi. Tasavvufni ommaga moslab tushuntirdi va o‘zi ham naqshbandiya tariqatiga sodiq qoldi. So‘fi Olloyorning Boborahim Mashrab bilan uchrashuvi tavsilotlari (Is‘hoq Bog‘istoniyning “Tazkirai qalandaron” asari)dan ma‘lum bo‘ladiki, ikkalasi ham oshiq edi. Mashrabning ilohiy oshiqlikni jununona bo‘lsa, So‘fi Olloyor aqlga suyanuvchi oshiqlikni ma‘qul ko‘rar edi. So‘fi Olloyor muhabbatini kitobga tushirsa, o‘rgansa bo‘lar edi, Mashrabning ishq xoslamniki edi. So‘fi Olloyor kalom ilmining asoslarini badiiy so‘z vositasida tushunarli bayon qilgan, naqshbandiylik ta‘limotida ilgari surilgan ma‘naviy-axloqiy qarashlarni maktab, madrasa ta‘lim tizimiga joriy qilib, tariqatni ham bo‘yiga, ham eniga taraqqiy etishiga hissa qo‘shgan mutakallim olim, Benazir shoir, buyuk so‘fiy bo‘lsa, Mashrab umr bo‘yi asl mohiyati bilan o‘zini bo‘lgan so‘zni-ishq-muhabbatni tarannum qilgan. Ammo, ikkalasining faoliyati mohiyati e‘tiboridan bir narsaga qaratilgan edi. Ma‘naviy yuksalish, odamlar dardi ikkalasini ham birlashtirib turuvchi vosita edi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, davrning noqulayliklariga qaramasdan So‘fi Olloyor o‘zidan din ahkomlarini, tariqat g‘oyalari mustahkamlovchi ma‘naviy meros qoldira oldi. Ushbu meros bugungu kunda avlodlar tomonidan munosib o‘rganilmoqda. Ma‘naviy merosga munosabat har bir xalqning o‘tmishini, madaniyatini va qadriyatlarini tushunish va qadrlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu munosabat ma‘naviy merosni asrab-avaylash, o‘rganish, targ‘ib qilish va kelajak avlodlarga o‘tkazishni o‘z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR

1. Is‘hoqova Z. So‘fi Olloyor. “O‘zbekiston”. Toshkent. 2018. 74-bet.
2. Rahimov M., Zamonov A. O‘zbekiston tarixi. “Fan”, Toshkent. 2019.
3. Rahimov K. Movarounnahr tasavvufi tarixi. “Akademnashr”, Toshkent. 2020. 233-bet.
4. Raxmatova X. Xoja Ahror Valiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. “ADIB”, Toshkent. 2014. 78-bet.
5. Rashid Zohid. Ravoyihur rayhon. “Sabotul ojizin” sharhi. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent. 2018. 72-bet.
6. Rizaev I. Liberalization of the social system: constructive and destructive aspects //TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research. – 2021. – T. 10. – №. 4. – C. 59-65
7. Usmonov F. N. The place of rational and creative thought in turning the virtuality into reality //Paradigmata poznani. – 2014. – №. 2. – C. 32-34.
8. Shamsutdinov R., Mo‘minov H. O‘zbekiston tarixi. “Fan”, Toshkent. 2020. 138-bet.
9. Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. “O‘zbekiston”, Toshkent. 2016. 372-bet.